

MEVA-SABZAVOTCHILIKDA INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALARNI
QO'LLASH IMKONIYATLARI

Usmonov Abubakir Ismoiljon o'g'li

Ibragimova Madina Farxod qizi

Toshkent davlat agrar universiteti talabalari

Ashurmetova N.A

Ilmiy rahbar -, i.f.n., dotsent

Annotatsiya: *Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lganligi sababli qishloq xo'jaligining iqtisodiy samaradorligini maqbul darajaga ko'tarish masalasi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ayni paytda bu masala mamlakatimiz rahbariyatining e'tiborida bo'lib, sohani rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, qishloq xo'jaligi, meva-sabzavotchilik, fermer xo'jaligi, agroklastar, iqtisodiy samaradorlik, maqbul daraja.*

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi aholini oziq - ovqat bilan ta'minlashni barqarorlashtirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, barcha faoliyat turlaridan iqtisodiy foyda olish orqali xalq farovonligini oshirishdan iborat.

Qishloq xo'jaligining iqtisodiy samaradorligini maqbul darajaga ko'tarish masalasi bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining dolzarb vazifalaridan biridir. Chunki qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biridir. So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalar, ilm-fan yutuqlarini keng joriy etish, agrar sohaga bilimlarni ommalashtirish va innovatsiyalarni joriy etish bilan bog'liq xizmatlarni tashkil etish bo'yicha muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ilm-fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasida qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarish qilishda va hududlarning tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan, eksportga mo'ljallangan yangi o'simlik navlarini olishda resurs tejaydigan intensiv texnologiyalar izchil joriy etilmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha davlat buyurtmasi bekor qilingani, sohaga bozor tamoyillari va yangi moliyalashtirish mexanizmlari, klaster va kooperativlar, oilaviy tadbirkorlar tomonidan xo'jalik yuritishning zamonaviy shakllari joriy etilgani ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va logistika tizimini kengaytirish hisobiga qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish choralari ko'rilmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda meva-sabzavotchilik sohasi katta o'rin tutadi. Bugungi kunga qadar meva-sabzavotchilik va

vinochilik tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha qator qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-dekabrda "Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 6-oktabrdagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 3-avgustdagi "2023–2026 yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohalarida mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, xizmat ko'rsatish va sotish (eksport qilish) jarayonlarini o'zaro integratsiya qilish, klasterlar (kooperatsiya) faoliyatini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va eksport hajmini oshirish maqsadida qabul qilingan.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy turlariga bo'lgan talabini to'liq qondirish, bozorlarda narxlar barqarorligini ta'minlash, qayta ishlash va eksport hajmini oshirish maqsadida aniq chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda. Xususan, 2023 yilda qo'shimcha ravishda 100 ming gektar yer foydalanishga kiritilib, oziq-ovqat ekinlari ekilgani, mevali bog' va tokzorlar barpo etilgani O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi va narxlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda meva-sabzavot va uzum yetishtirish uchun qulay tabiiy sharoitlar mavjud bo'lib, xududlarda optimal agrotexnik tavsiyalarga muvofiq mahsulotlarni yetishtirish natijasida yuqori hosil olish mumkin.

2023-yilda barcha toifadagi xo'jaliklar 3 574,1 ming t. kartoshka, 11 553,7 ming t. sabzavotlar, 2 553,5 ming t. poliz, 3 121,7 ming t. meva va rezavorlar, 1 737,6 ming t. uzum yetishtirildi (1-jadval).

1-jadval

2023- yilda yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

Shuni ham aytib o'tish kerakki, "meva-sabzavotchilik va uzumchilikni rivojlantirishda samarali bozor mexanizmlari tizimli yo'lga qo'yilmaganligi, ilmiy yondashuvning yetarli emasligi tarmoqning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmasligiga olib kelmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, 1 gektar maydonda yetishtirilgan paxta xomashyosiga nisbatan uzumdan 7 baravar, gilosdan 6 baravar, yong'oqdan 5 baravar ko'p daromad olish imkoniyati mavjud".

Demak, bugungi kunda qishloq xo'jaligida meva yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari faoliyatini yanada takomillashtirish, ular yetishtirgan mahsulotlar hajmini oshirish, sifatini xalqaro talablarga moslashtirish masalalarini ijobiy hal etish, meva yetishtirishda eng ilg'or innovatsion usullarni qo'llash alohida ahamiyatga ega ekanini tasdiqlashimiz mumkin. Ayniqsa, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi PF-6159 «Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni qabul qilinganligi, soha rivoji uchun muhim qadam bo'ldi.

Ishlab chiqarishda zamonaviy texnika va texnologiyalarning qo'llanilishi quyidagi imkoniyatlarni keltirib chiqaradi: jahon miqyosidagi talablarga javob beruvchi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishi; mahsulot tannarxi ahamiyatli darajada pasaytirilishi hisobiga korxonaning moliyaviy natijalari yuqori bo'lib, imkoniyatlari kengayishi; xomashyo va resurslar tejalishi; atrof-muhitga salbiy ta'sir qisqarishi va h.k. Agar mazkur texnika va texnologiyalar innovatsion tavsifga ega, ya'ni ilgari amalda qo'llanilmagan ishlanma va g'oyalarga asoslangan bo'lsa, u holda ulardan foydalanishning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati yanada yuqoriroq bo'ladi. Innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarishga tatbiq etilishi ushbu sohada qo'llanib kelinayotgan texnologiyalarga nisbatan yuqoriroq samaraga erishish imkonini beradi.

Mamlakatimizda meva-sabzavotchilikda zamonaviy ilg'or texnologiyalarni joriy qilish borasida qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan ochiq yer maydonlari, hosildorligi past bo'lgan paxta va g'alladan bo'shagan maydonlar, shuningdek, yaroqsiz deb topilgan bog' va tokzorlar joylashgan yerlarda intensiv bog' va tokzorlar barpo etilgan, issiqxonalar qurish tashkil qilingan. Meva-sabzavot ekinlarini yetishtirishda, xususan, meva-sabzavot ko'chatlarini yetishtirishda, ekinlarni sug'orishda, ochiq maydonda ekinlarni noodatiy usullarda o'stirishda, issiqxonalar barpo etishda, tuproq ustini mulchalashda, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashishda, qo'l kuchini kamaytirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanilib, ular o'z samarasini bermoqda. Masalan, tomchilatib sug'orishda 45-55 % suv iqtisod qilinadi, qator oralariga ishlov berish soni kamayadi, o'g'itlar samaradorligi 40% gacha oshadi, tuproq eroziyasi yuz bermaydi. Hozirgi kungacha mamlakatimiz qishloq xo'jaligida 500 ming gektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy yetilib, 3 milliard kub metr suv iqtisod qilingani va qariyb 1 million gektar yerning suv ta'minoti yaxshilangan.

Tuproq ustini mulchalash, ya'ni tuproq yuzasini go'ng, torf, poxol, qog'oz, polietilen plyonka va boshqa materiallar bilan yupqa qilib yopish texnologiyasi begona o'tlarning o'sishiga to'sqinlik qiladi, tuproq qatqaloqlanishiga yo'l qo'ymaydi, suvni kam bug'lantiradi. Pomidorni va bodringni ochiq maydonda sim bag'azda yetishtirish kabi innovatsiyani qo'llash natijasida gektardagi ko'chatlar soni ortadi, xavo almashinish jarayoni yaxshilanadi, yuqori namgarchilikni oldi olinadi, meva sifati yaxshilanadi, tuproqda kasallik qo'zg'atuvchilar va kasalliklar kamayadi, o'simlik yorug'lik va quyosh energiyasidan to'liq foydalanadi. Zamonaviy issiqxonalarni barpo etilishi ham ko'plab qulay shart-sharoitlarni yaratish hamda mazkur sohada band bo'lgan aholi daromadlarini oshirish imkonini beradi. Jumladan, lalmi va sho'rlangan joylarda foydalanish, xosildorlikni oshirish, uzluksiz va uzoq muddat xosil olish imkoniyatlari barcha agrotexnik jarayonlar avtomatlashtirilishi bilan yanada oshadi.

O'zbekistonda innovatsion jarayonlarni chuqurlashtirishga va innovatsiya bazasini mustahkamlash uchun barcha zarur ijtimoiy-iqtisodiy asoslar mavjud bo'lishiga qaramay, agrar sohani innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish, yoki boshqacha aytganda, innovatsion loyihalarni bir, hatto bir necha fermer xo'jaliklari

miqyosida ham amalga oshirishda muammolar mavjud, chunki: birinchidan, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi subyektlar hozirgi vaqtda ilmiy tadqiqot ishlariga buyurtma berish hamda tadqiqotlarni moliyalashtirishda ishtirokining sustligi; ikkinchidan, ilg'or innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishda tadqiqot olib borish va ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirishni ham xo'jalik subyekti o'zi amalga oshira olmaydi; uchinchidan, yangi texnologiya, yangi navlardan foydalanish uchun qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlovchilarning yetarli darajada bilimlarga ega emasligi, ular olimlar va mutaxassislar xizmatidan foydalanishlari zarur, shuningdek, mahsulotni qayta ishlash va sotishda ham fermerlar ma'lum darajadagi qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar; to'rtinchidan, oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari olimlari tomonidan tayyorlangan innovatsion ishlanmalarga ishlab chiqaruvchilarning talabi yetarli darajada emasligi, ular o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud emas.

Xulosa qilib aytganda, meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishni ta'minlash hamda sohada mavjud muammolarni tahlil qilish asosida ilmiy asoslangan xulosalarga tayangan holda rivojlantirish istiqbollari belgilash bo'yicha yaxlit tizim yaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.12.2019 y. PQ-4549-son "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-dekabrda "Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-oktabrdagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-avgustdagi "2023-2026 yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
5. Mambetnazarov B.B. Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashning o'ziga xos xususiyatlari // Agrosanoat majmui tarmoqlarida innovatsion boshqaruv faoliyatini modernizatsiyalash va rivojlantirish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - T.:TDAU, 2014.- 32 bet.
6. Nasimov B.V. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlanish samaradorligi // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2018 yil.
7. <https://stat.uz>